
M. TOPVOLDIEV MFY : IChKI YO'LLAR RAVON BO'LMOQDA

Ravon yo'l qurish, yoz va qish chillasida aynan yo'llarda duch kelinadigan qiyinchiliklarga barham berish maqsadida shu kecha-kunduzda Rishton tumanida ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, bu borada ichki yo'llar ham bosqichma-bosqich ta'mirlanib, asfalt qilinayotgani aholiga katta qulaylikdir.

????Xususan, hozirgi vaqtda 2-sektor hududidagi "M. Topvoldiev" mahallasidagi 300 metr masofadagi ichki yo'llarda beton yotqizish ishlari davom etmoqda.

????Tsement-beton qoplamali yo'llarni qurish 15-20 foizga qimmat bo'lsa-da, ekspluatatsiya muddati 2-3 baravar ko'p va saqlash xarajatlari 3 baravar kam.Yurtimizda sement ishlab chiqarish hajmi ortayotganini inobatga olib, yangi quriladigan va rekonstruktsiya qilinadigan davlat ahamiyatiga ega yo'llarni bosqichma-bosqich sement-beton qoplamaga o'tkazish rejalashtirilgan.

2022-12-05 14:31:21